


2020- yilning yanvar-iyul oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari


1626,1
mlrd. so'm

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Xorazm viloyatida jami **1626,1 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **100,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo`linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **143,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **133,9 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'satkich darajasidan **2,3 %** punktga ko'payib, **8,8 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Urganch shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,4 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **213,0 %**), Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **33,7 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **381,2 %**), va Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,9 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **54,0 %**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlaringning umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **59,7 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,2 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **94,4 %** ni tashkil etgan holda **971,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **31,5 %** ni tashkil etdi yoki **511,5 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,4 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **112,9** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1513,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatidagi ulushi mos ravishda **6,9 %** va **93,1 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati*	1626,1	112,9	6,9	1513,2	93,1
Urganch sh.	427,9	33,3	7,8	394,6	92,2
Xiva sh.	110,9	5,3	4,8	105,6	95,2
tumanlar:					
Bog'ot	97,2	15,6	16,0	81,6	84,0
Gurlan	102,6	10,4	10,1	92,2	89,9
Qo'shko'pir	87	11,1	12,8	75,9	87,2
Urganch	128,8	3,3	2,6	125,5	97,4
Hazorasp	54,5	5,8	10,6	48,7	89,4
Tuproqqa'l'a	37,5	0,0	0,0	37,5	100,0
Xonqa	135	3,5	2,6	131,5	97,4
Xiva	132,8	0,0	0,0	132,8	100,0
Shovot	98,1	10,5	10,7	87,6	89,3
Yangiariq	100,9	4,2	4,2	96,7	95,8
Yangibozor	112,9	9,9	8,8	103,0	91,2

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-iyul

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 71,1 % i yoki **1155,6** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

71,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **117,4** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 10,2 % ni tashkil etdi

10,2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **570,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 49,3 % ni tashkil etdi.

49,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **467,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 40,5 % ni tashkil etdi.

40,5 %




**2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur’ati, % da	Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Xorazm viloyati*	1626,1	100,6	1155,6
Urganch sh.	427,9	98,8	315,1
Xiva sh.	110,9	92,9	74,3
tumanlar:			
Bog’ot	97,2	110,2	63,1
Gurlan	102,6	101,4	71,6
Qo’shko’pir	87	100,3	58,2
Urganch	128,8	90,3	92,5
Hazorasp	54,5	92,4	35,1
Tuproqqa’la	37,5	96,3	27,7
Xonqa	135	149,5	113,7
Xiva	132,8	97,5	72,9
Shovot	98,1	100,4	75,8
Yangiariq	100,9	91,3	74,0
Yangibozor	112,9	100,3	81,6

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,4 %** ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,4 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga kamayib, **53,7 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,2 %** punktga ko`payib, **44,9 %** ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **19,7 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,2 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **80,3 %** (**4,2 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **15,4 %** punktga ko`paydi va **41,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **58,1 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **15,4 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyul oylarida


mldr. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati*	1626,1	1140,0	347,8	138,3
Urganch sh.	427,9	217,8	178,3	31,8
Xiva sh.	110,9	77,5	30,6	2,8
tumanlar:				
Bog'ot	97,2	68,7	21,7	6,8
Gurlan	102,6	83	13,4	6,2
Qo'shko'pir	87,0	67,8	11,6	7,6
Urganch	128,8	98,3	22,6	7,9
Hazorasp	54,5	44,5	9,4	0,6
Tuproqqa'l'a	37,5	30	6,8	0,7
Xonqa	135,0	74,7	7,4	52,9
Xiva	132,8	113,2	16,1	3,5
Shovot	98,1	74,8	11,6	11,7
Yangiariq	100,9	93,2	6,5	1,2
Yangibozor	112,9	96,5	11,8	4,6


*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajjni qo'shgan holda



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari




Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiylajmida eng yuqori ulush Yangiariq tumani qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajming 92,4 % i yoki **93,2** mlrd. so'm), shuningdek, Yangibozor tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajming 85,4 % i yoki **96,5** mlrd. so'm), Xiva tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajming 85,3 % i yoki **113,2** mlrd so'm), yuqori ulushiga ega.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 41,7 % i yoki **178,3** mlrd. so'm), Xiva shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,6 % i yoki **30,6** mlrd. so'm), Bog`ot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 22,3 % yoki **21,7** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Xonqa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 39,2 % i yoki **52,9** mlrd. so'm), Shovot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 11,9 % i yoki **11,7** mlrd. so'm), Qo'shko'pir tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 8,7 % i yoki **7,6** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
Statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22